

## BO'LAJAK TARBIYACHILARDA AKMEOLOGIK YONDOSHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

**Ergasheva Sarvinoz Ulug'bek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2 – bosqich talabasi

mail: [ergashevasarvinoz72@gmail.com](mailto:ergashevasarvinoz72@gmail.com)

**Annotatsiya:** Akmeologik yondashuvlar o'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishda yuqori natija beradi agarda: akmeologik rivojlanish usullari muammosining o'rganilganlik darajasi tahlil etilsa; bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari o'rganilsa; bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik rivojlanishi samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlansa; tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etish.

**Kalit so'zlar:** falsafiy, pedagogik kuzatish, pedagogik, metodik hamda kasbiy ta'lim modellashtirish; psixologik; shaxs; o'z-o'zini anglash, sotsiologiya, pedagogika.

Har qanday sohada yoki kasbda shaxs o'z potensialini rivojlantirishi jamiyatda va undagi turli tuman vaziyatlarda o'z - o'rniga ega bo'lishi muhim sanaladi. Shaxs nazariyasida pedagogika va psixologiya tarmoqlarida shaxsning o'ziga hos kasbiy malakalari shakllanishiga doir qarashlar mavjud.

Inson shaxsi o'zining psixologik xarakter temperamenti, olamni anglash hissi, dunyoqarashi va boshqa xususiyatlar asosida insonda kasbga hunarga alohida moyillik hosil bo'ladi bularga: inson inson, inson tabiat, inson badiy obraz, inson texnika kabilarga bo'linadi. Shu asosida yoshlarimizni tarbiyalashda uning imkoniyatlari, qobiliyati va asosiysi qiziqishlarini inobatga olgan holda bilimlarni egallashiga yo'naltirish lozim. Keyingi yillarda jahonning sinovdan o'tgan tajribalari asosida ta'limni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berililyapti. Jahonning ko'plab ta'lim tizimlarida ijtimoiy muhitga moslashuv va o'zaro harakatlar tizimini o'rtgatishga va professional bilimlarga o'rgatilyapti bu murakkab jarayon inson umrining oxirigacha davom etuvchi yo'l sanaladi. Bu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlarni, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib borishni o'rganadigan akmeologiya sohasi aynan kishini komillik darajasiga chiqish yo'llarini izlash ustida bosh qotiradi. Insonni rivojlanish fenomenologiyasini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganuvchi, tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy fanlar integrallashuvida paydo bo'lgan akmeologiya fani xuddi shunday

fanlar sarasiga kiradi. Sotsiologiya, pedagogika va psixologiya bilan o‘zaro harakatda rivojlanib borayotgan akmeologiya fani so‘nggi paytlarda o‘z e‘tiborini kadrlarni malakali mutaxassis tayyorgarligiga va uzluksiz ta‘lim tizimiga qaratmoqda.[1]

Akmeologik yondashuv yordamida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini takomilashtirishni turli qirralarini hisobga olgan holda, malakali mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish muammolari oldingi o‘ringa chiqib bormoqda. Bu borada ta‘lim tizimida tarbiyachi shaxsiga e‘tibor katta.[2] Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy moslashishini akmeologik jihatdan tadqiq qilinsa bugungi zamon talabiga mos, biroq avvalgi chuqur bilimlarga ham ega yetuk tarbiyachi shaxsini, o‘z ishining mutaxassisi etib yetishtirish jarayoni juda murakkab pedagogik va psixologik jarayon hisoblanadi. Yosh avlodga ta‘lim tarbiya beruvchi yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash muhim ustivor masala bo‘lib qolaveradi. Tarbiyachi shaxsi o‘z ustida tinimsiz ishlashi hamda izlanishi masalasiga e‘tibor bugungi kunda ham juda katta. Akmeologik yondashuvlar asosida o‘z faoliyatining akme darajasiga intilish va uni ro‘yobga chiqarish ustida yangi usul va har kim oziga hos yo‘nalishlaridan borishini talab etadi.[3]

O‘z-o‘zini anglashning individual usuli va varianti g‘oyasi (K.A.AbulxanovaSlavskaya, A.A.Derkach va boshqalar). Olingan vaqtinchalik kompetensiyalar va shaxs tomonidan erishilgan vaqtinchalik malaka darajasi ko‘p jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning individual psixologik xususiyatlari va xususiyatlarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. A.A.Derkachning fikricha akmeologiyada modelga murojaat qilish zarurati bizga psixologik hodisani tasavvur qilish, uning muhim xususiyatlarini, tarkibiy xususiyatlarini, mexanizmlarini, shakllanish darajalarini ochib berishga imkon beradi.[4]

Reflektiv tomoniga ko‘ra: (rivojlanayotgan «Men» sifatidagi shaxsni o‘zligini anglash va mehnat faoliyati jarayonida kommunikatsiya bo‘yicha hamkorlarini tushuna bilishi bilan bog‘liq) tizim yaratuvchi faktor hisoblanib, insonni kasbiylashuvini belgilashda akmeologik aspektlarning optimal o‘zaro harakatini ta‘minlaydi.[5]

Maktab yoshidagi bolaga, yosh avlodga va boshqa tinglovchiga bilim berishda o‘z kasbiy mahorati yuksak akmeshaxs bo‘la oladigan o‘qituvchi o‘zining tasirigagi tinglovchini to‘la jaalb eta olishi hamda uni bilim olish va hayotiy ko‘nikmalarga tayyorlashi tayin. Akmeologik ta‘lim texnologiyalarini o‘qitish amaliyotida tatbiq etish, ta‘lim va ijodni rivojlanishini reflekslipsixologik konsepsiyasi asosida malakali mutaxassislarni tayyorlashda akmeologik yondashuvlarni tuzilmaviy tomonlarini hisobga olib borish lozim.[6]

## XULOSA

Darhaqiqat, Abdulla Avloniy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta'rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, ya'ni axloqli, odobli, bilimdonligi, ziyakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta'lim- tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo'lsa, ijodiy izlanish o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchining eng muhim kasbiy sifatlaridan ekanligini uqtiradi. Bu bilan Abdulla Avloniy o'qituvchi faoliyatiga nisbatan akmeologik yondashuvni o'z davri qiyofasida olg'a suradi. Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik rivojlanish jarayonini yana bir e'tiborli jihati bu yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlardagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga to'laqonli tatbiq etishning zaruriy shart- sharoitlari majmuasining belgilanishidir. Chunki, qulay va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik sharoit jarayondan ko'zlangan natijaga erishishini engillashtiradi.

Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuvlar asosida kasbiy mahoratini rivojlantirishda yuqori natija beradi agarda: akmeologik rivojlanish usullari muammosining o'rganilganlik darajasi tahlil etilsa; bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari o'rganilsa; bo'lajak tarbiyachilarni akmeologik rivojlanishi samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlansa; tizimli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy moslashtirish modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etish.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмадов, Н. Р. (2021). Подростковый суицид. причины и профилактика. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 30-34.
2. Ахмадов, Н. Р. (2020). Причины суицидов в детском и подростковом возрасте. Рекомендовано к печати Ученым советом Института психологии имени ГС Костюка НАПН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020), 14.
3. Ахмадов, Н. Р. (2019). Причины суицида среди подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 60-63.
4. Azimovna M. S., Shokhrukhovich U. F. Ways to expand network marketing and ecommerce in the wholesale of medicines //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 06. – С. 113-116.
5. Рустамов, Ш. Ш. (2021). Амалиётчи психологлар касбий компетенлигини ривожланишида математик усуллардан фойдаланишнинг амалий жихатдан ўрганилиши.
6. Axmadov, N., & Ostanov, S. (2021). РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 3(3).